

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY PEDAGOGIK
TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI VA UNING
SAMARADORLIGI**

Raxmatova Gulruh Hamroyevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Pedagogika yo'nalishi 1-kurs

magistranti

Ilmiy rahbar: Keldiyorova Manzura G'aybullayevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Pedagogika va o'qitish metodikasi"

kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonlari, yosh o'qituvchilarning pedagogika sohasiga ijodiy yondashishi hamda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi. Shuningdek, turli xil interfaol metodlardan foydalanib, o'quv mashg'ulotlarini qiziqarli va samarali tashkillashtirish shakllari va ularning natijadorligi haqida fikr yuritiladi. Maqola, innovatsion ta'lim metodlari orqali o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda ijodiy yondoshuvning va interfaol usullarning o'quvchilarning o'rganish jarayoniga qo'shgan ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagog, kasb, amaliyot, tajriba, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv, 4K modeli.

Аннотация: В статье рассматриваются процессы формирования профессиональной подготовки будущих педагогических кадров, творческий подход молодых педагогов к педагогической сфере, развитие навыков креативного мышления. Также с помощью различных интерактивных методов рассматриваются интересные и эффективные формы организации

учебных занятий и их результативность. В статье показано положительное влияние творческого подхода и интерактивных методов на процесс обучения учащихся при подготовке учителей к педагогической деятельности посредством инновационных методов обучения.

Ключевые слова: *учитель, профессия, практика, опыт, интерактивные методы, инновационный подход, модель 4К.*

Annotation: *the article discusses the processes of formation of professional training of future pedagogical personnel, the creative approach of young teachers to the field of pedagogy and the development of creative thinking skills. Also, using various interactive techniques, it is thought about the forms of interesting and effective organization of training sessions and their consequentiality. The article shows the positive impact of creative approach and interactive methods on the learning process of students in the preparation of teachers for pedagogical activity through innovative educational methods.*

Keywords: *teacher, profession, practice, experience, interactive methods, innovative approach, 4K model.*

Kirish: Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarning kelgusidagi kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Hozirgi raqamli texnologiyalar davrida bu jarayonni avtomatlashtirish, uni yanada samarali va interaktiv qilish orqali o'qituvchilarning tayyorgarlik jarayonini yuksaltirish imkonini beradi. Amaliyot jarayonlarini avtomatlashtirish natijasida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va interaktiv usullardan foydalanib, ta'lim jarayonini yangilash va samarali tashkil etish mumkin bo'ladi. Ta'lim jarayonida amaliyot va nazariyani integratsiyalash, talabalarni real ish sharoitlariga tayyorlash. Har bir talabaga individual ehtiyojlar va qobiliyatlariga mos ta'lim resurslarini taqdim etish. Ta'lim jarayonida interaktiv vositalar va amaliyotlar yordamida ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini taqdim etiladi. Amaliyot jarayonini avtomatlashtirish ta'lim sohasida mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish va ta'lim jarayonini yanada samarali qilish uchun zarur bo'lgan innovatsion

yechimlarni taqdim etadi. Amaldagi amaliyot o'tash jarayonlari ko'pincha o'z natijasini bermagan. Bu holatning quyidagicha bir nechta sabablari bor: birinchidan, amaliyot jarayonining noto'g'ri tashkil etilishi yoki yetarli resurslarning bo'lmashligi natijasida amaliyotchilar amaliyotdan kerakli darajada foydalana olishmaydi. ikkinchidan, nazariy bilimlar va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Bu amaliyotchilar amaliyot o'tash jarayonida o'zlarini qoniqtirmasliklariga olib keladi, chunki amaliyot real ish sharoitlariga mos kelmaydi. uchinchidan, amaliyot o'tash uchun ta'lim yo'nalishlariga mos bo'lgan sifatli amaliyot o'tash joylarining yetishmasligi ham hozirgi kundagi yana bir muammodir. Ko'plab talabalarga yaxshi amaliyot joylari topish mushkul, yoki mavjud joylar qoniqarli amaliyot sharoitlari va kadrlar bilan ta'minlanmagan bo'ladi. to'rtinchidan, amaliyot dasturlari ko'pincha amaliyotchilar yoki mutaxassislarning individual ehtiyojlariga moslashtirilmagan. Masalan, amaliyotching amaliyot o'tash joyi bilan bog'liq muammolar, amaliyotchining erkin amaliyot o'tash joyini tanlash imkoniyatlarining yo'qligi. beshinchidan, ta'lim jarayonida belgilangan maqsadlar va natijalar aniq oldindan belgilangan bo'lishi va doimiy nazoratda bo'lishi kerak. Amaliyotdan kutilgan natijalar yetarli bo'lmashligiga yana bir sabab amaliyotchilar amaliyot o'tash joylarini va ular bilan avvaldan tuzilishi kerak bo'lgan shartnomalar bilan bog'liq muammolar. oltinchidan, amaliyotchilar amaliyot uchun yetarli ko'nikma va malakalarga ega bo'lmashligi. Amaliyotning boshlanishi va uning davomida qanday ketma-ketliklar bajarilishi kerakligi haqida yetarlicha ko'nikmaga ega bo'lmay qolishi amaliyot ko'rsatgichlarini pasaytiradi bu esa, amaliyot tizimi va dasturlari zamonaviy talablarga javob bera olmasligini isbotlaydi. Eski yoki mos kelmaydigan tizimlar amaliyot jarayonining samaradorligini kamaytiradi. Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, uning muvaffaqiyati, avvalo, malakali pedagog kadrlar tayyorlashga bog'liq. Bo'lajak pedagogni shakllantirish – bu nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallash, balki shaxsiy fazilatlar, pedagogik mahorat va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish jarayonidir. Ushbu jarayon o'qituvchi

sifatida kelajak avlodni tarbiyalash, ularning bilim va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish mas'uliyatini o'z ichiga oladi. Shuning uchun bo'lajak pedagog o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lish bilan birga ijodiy, muloqotga ochiq, yangiliklarni tez o'zlashtira oladigan, o'quvchilarga ta'lim jarayonida ruhlantiradigan, motivatsiya bera oladigan shaxs sifatida ham shakllanishi kerak. Buyuk alloma Abu Nasr al-Farobiy shunday degan edi: *"O'qituvchi axloqiy jihatdan pok bo'lmog'i lozim, chunki u nafaqat bilim, balki tarbiyani ham shakllantiradi."* Bu g'oya o'qituvchi shaxsining fazilatlariga urg'u beradi. O'qituvchi muzokarali, muomalali va kirishimli hamda sabrli bo'lsa, ta'lim va tarbiya oluvchi kelajak avlod ham o'qituvchi shaxsiga mos ravishda ahloqiy jihatdan tarbiyalanib boradi. Aksincha, o'qituvchi jizzaki, asabiy va qo'pol xarakterli bo'lsa, undan ta'lim oluvchi o'quvchilar ham badfe'l bo'lib voyaga yetadi. Shunday ekan, har bir pedagog o'z sohasi yuzasidan izlanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi, ertamiz davomchilari bo'lmish yosh avlodning bilimli, salohiyatli bo'lib voyaga yetishlari uchun mahoratli pedagogga aylanishi lozim.

Pedagogning kasbiy rivojlanishi pedagogika, psixologiya, metodika, pedagogik muloqot, axborot texnologiyalari va ta'lim jarayonini boshqarish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu omillarni o'zlashtirish orqali bo'lajak pedagog ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishga va ularni har tomonlama rivojlantirishga qodir bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchi yuksak kasbiy tayyorgarlik jarayonida malakasi, bilimi va ma'naviy-ahloqiy jihatdan o'zining pedagoglik salohiyatini sifatli, zamon talabiga mos ravishda oshirib borishi muhim. Kasbga oid nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirayotgan vaqtda pedagogik jamoa bilan doimiy muloqotda bo'lish ijobiy yondashuv beradi. Zero, bunday jamoda kasbga tayyorlanadigan bo'lg'usi pedagog uchun tajriba olish, kritik va kreativ fikrlaydigan mutaxassis bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

Buyuk nemis olimi Adolf Disterverg fikriga ko'ra: *"O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi."* [1] Olimning so'zidan shuni

xulosa qilish mumkinki, o'qituvchi har bir dars mashg'ulotiga astoydil tayyorlanib, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, video, audio kabi texnik vositalar ishtirokida qiziqari mashg'ulotlar o'tishi lozim. Bunday metodik usullarni har bir darsida qo'llagan pedagogning ham, undan ta'lim olayotgan o'quvchilarning ham bilim darajasi oshadi, fikrlash doirasi rivojlanadi. Shuningdek, pedagog o'z sohasiga qiziqmasa, o'quvchiga nisbatan bemehr va badfe'l bo'lsa, o'quvchi shaxsi bilan kommunikativ muloqoti hech qachon rivojlanmaydi, ko'zlangan natijalami bermaydi. Kasbiy faoliyatini endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar o'z-o'zini muntazam tahlil qilib borishi, dars jarayoniga pedagogik jihatdan samarali tayyorgarlik ko'rishi uchun har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lishi talab qilinadi. Shu bilan bir qatorda o'quv dars jarayonida hamma o'quvchi bilan bir xil munosabatda bo'lish, har xil xarakterdagi o'quvchilarga moslashishi, o'quvchilarni, ruhlantira olishi va ularga motivatsiya berish kabi sabrlilik va bag'rikenglik kabi fazilatlarni egallamog'i lozim.

O'quvchilar va ularning ota-onalari, hamkasblar bilan ochiq, samimiy munosabatda bo'lishi kerak.

Bugungi

kunda yosh pedagoglarga 4 K modeli asosida darsni tashkil etish usullari, metodlari o'rgatilib kelinmoqda. 4K modeli ta'lim jarayonida o'quvchilarga zarur bo'lgan zamonaviy kompetensiyalarni shakllantiradi, bu esa ularning kelajakdagi ish faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishiga imkon yaratadi. Ushbu model nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarga o'z bilimlarini amaliyotda qanday qo'llashni o'rgatadi. Shu bilan birga, bu o'quvchilarda mustaqil fikrlash, jamoaviy ish va innovatsion qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. 4K modeli, ayniqsa, XXI asrning ta'lim tizimida zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, chunki bugungi kunda ish joylarida nafaqat texnik ko'nikmalar, balki ijtimoiy va ijodiy ko'nikmalar ham talab qilinadi. Shunday qilib, bo'lajak pedagogni shakllantirish – bu uzluksiz o'qish, izlanish va tajriba orttirish jarayoni bo'lib, uning natijasida jamiyatning intellektual va ma'naviy taraqqiyotiga katta hissa qo'shadigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqadi.

XULOSA

O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi ularning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarurdir. Kasbiy tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, va o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga e'tibor qaratish orqali, ularning samaradorligini oshirish mumkin. Bunday yondoshuvlar o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini yanada yaxshilashga va ta'lim jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi. 4K modeli o'qituvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishini qo'llab-quvvatlab, ularni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Bu modelning ta'limga tatbiq etilishi o'qituvchilarda kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Pedagogik mahorat"- A.Xoliqov, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA"2011
2. "Innovatsion pedagogika" uslubiy qo'llanma,-Aliqulova M.M, Toshkent-2012
3. Ziyonet.www
4. Axmedov, R. (2021). Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish. Ta'lim texnologiyalari jurnal, 7(3), 45-52.
5. Karimov, A. (2020). O'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar. Pedagogika va psixologiya, 4(2), 23-28.
6. Usmonov, B. (2018). Ta'limda axborot texnologiyalari. Toshkent: Sharq nashriyoti.